

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2023.PeD.173.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

RASULOV DJASUR SAPAROVICH

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASH
QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYA
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

UDK:378.015.3:159.955.6

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) on pedagogical sciences**

Rasulov Djasur Saparovich

Bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish
texnologiyasi 3

Расулов Джасур Сапарович

Технология развития способностей логического мышления будущих
педагогов.....23

Rasulov Djasur Saparovich

Technology for developing logical thinking abilities of future teachers..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works49

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2023.PeD.173.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

RASULOV DJASUR SAPAROVICH

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASH
QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYA
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Ped4855 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.bimm.uz) va "ZiyoNET" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Narzikulova Dilnoza Hoshimjonovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Djurayev Dusmurod Uralovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Pozilova Shaxnoza Haydaraliyevna
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.09.2023.Ped.173.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «16» 05 kuni soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi 3-uy. Tel.: (+99871) 202-01-20; faks: (+99871) 239-01-21; e-mail: info@bimm.uz).

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (19-raqamli bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi 3-uy. Tel.: (99871) 203-01-28;

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «25» 04 kuni tarqatildi.
(2025-yil «25» aprel da 19 - raqamli reyestr bayonnomasi).



U.Sh.Begimkulov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
pedagogika fanlari doktori, professor

N.K.Haqqazarova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD)

Ya.O'.Ismadiyarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda aqliy jihatdan barkamol bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalash, ularni mantiqiy texnologiyalar asosida intensiv o'qitish, yosh iqtidor egalarining biror sohaga bo'lgan qobiliyatini o'z vaqtida qo'llab-quvvatlash ishlari ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etib kelinmoqda. Boloniya deklaratsiyasi qoidalarida aks etgan "Dunyo oliy ta'limi sifati va uning samaradorligini yanada oshirish, o'quv jarayonida talabalar va professor-o'qituvchilarning harakatchanligini kuchaytirish, shuningdek, universitet bitiruvchilarini muvaffaqiyatli ish bilan ta'minlash"¹ reja-dasturiga muvofiq, butun jahonda oliy ta'lim tizimiga zamonaviy o'qitish usullarini joriy etish masalasi o'ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu o'z navbatida, oliy ta'lim tizimi oldiga bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash dasturlariga, mazkur deklaratsiya qoidalarini kengroq joriy qilish hamda bunga erishishning muhim omillaridan biri sifatida, ularning mantiqiy fikrlash kompetensiyalarini yanada rivojlantirish hamda mantiqiy fikrlashni ta'minlovchi texnologik usullar haqidagi ilg'or bilimlar tizimi bilan qurollantirish kabi talablarni qo'yimoqda.

Dunyoda o'qituvchilarning mantiqiy fikrlash kompetensiyalari va ijodiy tafakkur qobiliyatlarini diagnostika qilishda, zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlardan kengroq foydalanish, bo'lajak o'qituvchilarda dars jarayonini mantiq qonunlari asosida samarali tashkil eta olish malakalarini yanada rivojlantirish, shuningdek, mantiqiy amallar bilan muvaffaqiyatli ishlash va natijalarni dalillay olish, yangi tushunchalar bilan tezkor ishlay olish malakasi, ma'lumotlar yuzasidan xulosalar tuza olish tajribasi, induksiya va deduksiya qonunlari asosida topshiriqlar ishlab chiqar olish ko'nikmasi, fikr yuritishda mantiqiy xatolarni aniqlay olish qobiliyati, masalaga kreativ yondasha bilish tajribasi, fanning mantiqiy tuzilishini yaxshi bilishi, bilimlar tizimini asosli taqqoslay olish va tasniflash qobiliyati kabi masalalar bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy fikrlashga o'rgatish texnologiyalarini tavsiflovchi, pedagogik ishlanmalarning diagnostik imkoniyatini ekspert baholash, bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiruvchi texnologik modelni yanada takomillashtirish, mantiqiy fikrlashga o'rgatuvchi pedagogik-psixologik mashq va masalalar turini ishlab chiqish, ularni tizimlashtirish kabi ilmiy tadqiqotlarga yangi islohotlar darajasida e'tibor qaratilmoqda.

Yangi O'zbekistonning bugungi kundagi zamonaviy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchi shaxsiga bo'lgan obyektiv talablarni tubdan yangilash, ularda kreativ ishlash ko'nikmalarini faol shakllantirish, ularning kasbiy muhitdagi shaxsiy va kasbiy ahamiyatli xususiyatlari, malakasi va samarali ta'lim hamkorligining variativligini ta'minlash, zamonaviy o'qituvchi shaxsining namunaviy modelini takomillashtirishning me'yoriy-huquqiy asoslari yaratilmoqda. "Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda zamonaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko'tarish, shuningdek, pedagogika sohasida ta'lim, ilm-fan va

¹<https://eurydice.eacea.ec.europa.eu>.

amaliyot uyg'unligini ta'minlash"². Shu bois, mantiqiy fikrlash kompetentligini oshirishning pedagogik jihatlarini aniqlash va baholash ilmiy ahamiyat kasb etib, pedagogik bilimlar tizimini modernizatsiyalash hamda bo'lajak o'qituvchilarning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi, ilg'or innovatsion-mantiqiy mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydagi O'RQ-837-son "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-apreldagi 243-son "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori, shuningdek, ushbu faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Zamonaviy pedagogika fanida mantiqiy fikrlash shartlari, mantiqiy tafakkur va masalaning mantiqiy-kognitiv tahlili, o'qituvchilarning taqqoslash va tasniflash tajribasi, ma'lumotlarni dalillay olish, topshiriqlarga ijodiy yondashish, induktiv va deduktiv xulosa chiqara olish malakasi, bo'lajak o'qituvchilarga xos mantiqiy fikrlash kompetensiyalari kabi masalalar xususidagi ilk tadqiqotlar xorij va o'zbek pedagog-psixolog olimlari izlanishlarida o'z aksini topgan. A.Abduqodirov, Sh.Abdullayeva, R.Djurayev, X.Ibraimov, U.Inoyatov, O.Musurmonova, D.Ro'ziyeva, D.Sharipova, Sh.Toshpo'latova, B.Xodjayevlar tomonidan bo'lajak mutaxassislarning intellektual rivojlanish masalalarining turli jihatlarini tadqiq etilgan.

Mamlakatimiz psixolog olimlari ham, mazkur muammoga yaqin masalalarda e'tiborga molik izlanishlar olib borishgan. Jumladan, M.G.Davletshin, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, A.I.Rasulov, K.B.Qodirov, E.G'.G'oziyev, G'.B.Shoumarovlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar bunga yaqqol misoldir.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-289-son Qarori. <https://lex.uz/uz/>

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari psixologiyasida ham, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, mustaqil fikrlashning refleksiv, kognitiv-mantiqiy jihatlari, mantiqiy tafakkurni shakllantirishning texnologik usullari, kichik maktab yoshida mantiqiy fikrlash rivojlanishining o'ziga xosligi masalalarida qator ilmiy maktablar yaratilgan. Ular orasida V.S.Ablova, V.P.Bespalko, A.P.Boyko, L.F.Budankov, I.A.Bartashnikovoy, P.Ya.Galperin, A.D.Getmanova, V.I.Igoshin, E.Zeer, Ye.P.Malanyuk, L.G.Peterson, O.B.Polishuk, L.Tarita, L.N.Fatkullova, I.S.Yakimanskaya, S.G.Yakovleva, A.Z.Zaklarning tadqiqotlarini alohida e'tirof etish mumkin.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli ishlash kompetensiyalari borasida xorijlik olimlardan J.P.Allen, K.Aurin, J.Bezzington, M.Boden, T.Garcia, B.L.Esser, A.R.Jarvis, M.S.Knovles, M.Ye.Levinson, L.M.Richards, J.Piajalar e'tiborga molik ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Qayd etilgan mualliflarning izlanishlarida, asosan, mantiqiy fikrlashning pedagogik jihatlari, intellektual rivojlanish va mantiqiy tafakkur dinamikasi, o'quvchilarning mantiqiy salohiyati, bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy-algoritmik madaniyati kabi masalalar keng ko'lamda o'rganilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning modernizatsion yo'nalishlari" ilmiy yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik faoliyatida mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ahamiyatini aniqlashtirish;

talabalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda amaliy kompetensiyalar, nostandart topshiriqlardan foydalanish mazmunini tizimlashtirish;

innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish texnologiyasi modelini takomillashtirish;

bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda baholash mezonlari va darajalarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish jarayoni belgilangan bo'lib, tajriba-sinov ishlariga Navoiy davlat pedagogika instituti, Qo'qon davlat pedagogika instituti va Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filialining 375 nafar respondent-talabasi ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mazmuni, metod, vosita, shakl va texnologiyasi tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda so'rovnoma, suhbat, pedagogik kuzatuv, ekspert baholash, savol-javob, nazariy tahlil, qiyosiy-tipologik va analitik metod, umumlashtirish, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Jumladan, Yaroslav Isaykin tomonidan ishlab chiqilgan "Mantiqiy fikrlash darajasini baholashning besh omilli" so'rovnomasi, R.B.Kettellning "Shaxsni 16 omilli

xususiyatlarini baholash” so‘rovnomasi, S.R.Panteleyev va V.V.Stolinning “Subyektiv lokus nazorat” metodikasi, G.S.Xollning “Emotsional intellekt” metodikasi hamda “Tafakkur tezligi va tafakkur egiluvchanligi” so‘rovnomalaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash mazmuni ularda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni tahlil qilish va umumlashtirish, universal mantiqiy o‘quv harakatlarini moslashuvchan (soft skills) va maxsus (hard skills) kompetensiyalarni joriy etishga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan;

talabalarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy kompetensiyalar majmui kognitivlikdan-kreativlikka yo‘naltirilgan vazifalarga ustuvorlik berish tamoyili asosida talabalarining tanqidiy fikrlash, dalillay olish, xulosa chiqarish ko‘nikmalari tizimlashtirilgan;

innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish modeli didaktik jarayonlar produktogenligi bilan o‘zaro muvofiqlik darajasi intensivligini bevosita o‘quv jarayoniga uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

mantiqiy topshiriqlarni bajarishda individual ta‘lim olish samaradorligi talabalarni kreativ bilimlarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarining baholash mezonlari va darajalari kompleks diagnostik vositalarni dinamik monitoringi imkoniyatlari validligini ta‘minlash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagicha:

talabalarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga doir ilmiy- metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

talabalarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda “Pedagogik diagnostika va korreksiya” darsligi ishlab chiqilgan.

bo‘lajak o‘qituvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga doir “Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi” nomli tanlov fanning o‘quv dasturi ishlab chiqilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish samaradorligini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari aniqlashtirilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot ishi jarayonida to‘plangan ma’lumotlarning ishonchliligi, avvalo, tadqiqotda qatnashgan sinaluvchilarning mos ravishda tanlanganligi, amaliy natijalarning ilmiy jihatdan asoslanganligi, tadqiqot obyekti sifatida hududiy oliy ta‘lim muassasalari tanlanganligi, reprezentativ tanlanmaning to‘g‘ri qo‘yilganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi jahon pedagogikasi tajribalarida mavjud so‘rovnomalardan ko‘p marotaba foydalanilganligi, amaliy natijalarning miqdoriy ko‘rsatkichlari matematik-statistikaning ishonchli metodlari yordamida tahlil qilinganligi, xulosalar, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriylanishi hamda yetakchi olimlar ishtirokida muhokama qilingan natijalar bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchi kurs talabalari pedagogik faoliyatida mantiqiy fikrlashning texnologik xususiyatlari nazariy hamda metodologik jihatdan takomillashtirish, yangi ma’lumotlar bilan asoslash, shuningdek, qo‘lga kiritilgan natijalardan oliy ta‘lim muassasalarida “Ijtimoiy pedagogika”, “Kasbiy pedagogika”, “Zamonaviy pedagogik texnologiyalar”,

“Umumiy pedagogika”, “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi”, “Pedagogik psixologiya”, “Ta’limda pedagogik xizmat” kabi fanlarni ilmiy manbalar bilan boyitish, nazariy metodologik asoslarni takomillashtirish hamda pedagogika tarmoqlari bilan o‘zaro aloqadorlikni ta’minlashga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, oliy ta’lim muassasalari tizimida pedagogik xizmatni samarali tashkil etish hamda bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini pedagogik-psixologik jihatdan kamol topishiga keng miqyosda yordam berish, umumiy o‘rta ta’lim tizimida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf qilish, o‘qituvchilarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini kuchaytirish va aqliy-intellektual xususiyatlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalardan oliy ta’lim muassasalari pedagog-psixologlari, tyutor va tarbiyachi pedagoglari hamda pedagogika oliy o‘quv yurti professor-o‘qituvchilari keng ko‘lamda o‘z faoliyatlarida foydalanishlari mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi bo‘yicha olingan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik faoliyati va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasining o‘zaro aloqadorligini yangi bilimlarni tahlil qilish va umumlashtirish, sabab-oqibat aloqalarini o‘rnatish, o‘zining hukmlarini asoslay olish kabi universal mantiqiy o‘quv harakatlarini moslashuvchan va maxsus kompetensiyalar bilan internallik darajasi qat’iyligini belgilash asosida aniqlashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan “Pedagogik diagnostika va korreksiya” darsligini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-son buyrug‘i, № 302-0772 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, bo‘lajak o‘qituvchilarning mantiqiy fikrlashi diagnostikasiga doir ta’lim mazmunini takomillashtirishga xizmat qilgan;

talabalarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda nostandart topshiriqlardan foydalanish mazmunini psixologik-pedagogik fanlarning rivojlantiruvchi imkoniyatlarini bevosita hisobga olish, kognitivlikdan kreativlikka yo‘naltirilgan vazifalarni algoritmik ketma-ketlikda loyihalashning tizimli tahliliga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan FZ-2016-0909111822. “Darsliklar va o‘quv adabiyotlari mazmuniga Sharq pedagogik tafakkuri durdonalarini singdirish orqali o‘quvchilarda ommaviy madaniyatga qarshi kurashchanlik ko‘nikmalarini shakllantirish mexanizmlari” (2017-2020-yy.) mavzusidagi fundamental loyihaning Sharq mutafakkirlarining mantiqiy fikrlashga doir qarashlari qismini bajarishda foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 10-oktabrdagi 02/40-2849-son ma’lumotnomasi). Natijada bo‘lajak o‘qituvchilarning mantiqiy fikrlashga doir topshiriqlarni loyihalashda miilliy tajribadan foydalanish malakasini shakllantirishga xizmat qilgan;

innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi modelining kontseptual asosini muvaffaqiyatga erishish sifatlari va amaliy kompetensiyalarning korrelyatsiyasini didaktik jarayonlar samaradorligi bilan o‘zaro muvofiqlik darajasi intensivligini

bevosita hisobga olish asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan “Pedagogik diagnostika va korreksiya” darsligini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-son buyrugʻi, № 302-0772 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, boʻlajak oʻqituvchilarning mantiqiy fikrlashini tashxis etish boʻyicha korrelyatsiyani aniqlashga doir koʻnikmalarini rivojlantirishga xizmat qilgan.

rivojlantiruvchi taʼlim texnologiyasi asosida boʻlajak oʻqituvchilarning mantiqiy topshiriqlarni fikrlash komponentlariga mos keladigan psixologik-pedagogik treninglar, tafakkur operatsiyalariga xos mashqlar tizimini baholashning moslashuvchan metodikalariga identiv tarzda loyihalashning samaradorligini taʼminlash orqali takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan P3-2014-0910185149. “Umumiy oʻrta taʼlim tizimida oʻquvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan taʼlim texnologiyalari” (2015-2017-yy.) amaliy loyihasining oʻquvchilarda mantiqiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini loyihalashtirish va rejalashtirish qismini bajarishda foydalanilgan (Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 10-oktabrdagi 02/40-2849-son maʼlumotnomasi). Natijada, boʻlajak oʻqituvchilarning mantiqiy topshiriqlarni loyihalash kompetentligini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobsiyasi. Tadqiqot natijalari 19 ta ilmiy- amaliy anjumanda, shu jumladan, 4 ta xorijiy, 6 ta mahalliy va 5 ta respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan 1 ta darslik, Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, bulardan 6 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda, 5 tasi respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, 9 ta paragraf, boblar boʻyicha xulosalar, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati hamda ilovalardan iborat boʻlib, umumiy hajmi 169 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan; ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi va amaliyotga joriy etilishi, nazariy va amaliy ahamiyati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar oʻrin olgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish haqida zamonaviy qarashlarning pedagogik- nazariy asoslari”** deb nomlangan va unda taʼlim jarayonida mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari yoritilgan. Jumladan, boʻlajak oʻqituvchilarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda mantiqiy fikrlashning oʻrni nazariy manbalar asosida ochib berilgan.

Nazariy tahlil asosida, bo'lajak o'qituvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda mantiqiy topshiriqlardan foydalanishning pedagogik-psixologik jihatlarini ko'rib chiqilgan.

Zamonaviy pedagogika fanida insonning mantiqiy fikrlash masalalarini oqilona hal etishi hamda mantiqiy tafakkur rivojlanishining o'ziga xos jihatlarini, bo'lajak soha egalarini mantiqiy fikrlashga o'rgatish texnologiyalari kabi masalalar o'ta dolzarb mavzulardan sanaladi. Shundan, hozirda har bir o'qituvchi o'quvchilarga imkon qadar chuqurroq bilim berishga harakat qiladi. I.P.Podlasiy o'zining pedagogika oliy o'quv yurti talabalari uchun mo'ljallangan "O'qitish jarayoni" nomli qo'llanmasida yozishicha, mantiqiy fikrlashga o'rgatish bu – o'z fikrlash operatsiyalarining to'g'ri va noto'g'riligini tekshirish, ularni doimiy ravishda masalalarni turli yo'llar bilan yechishga yo'naltirish, mantiqiy fikrlashni talab qiluvchi misollarni yarata olish, hisob-kitoblarni amalga oshirish kabi operatsiyalarni bajarishda o'z aksini topadi. Mazkur ta'rifdan shuni anglash mumkinki, mantiqiy fikrlash shunchaki idrok qilish, tayyor ma'lumotlarni egallash jarayoni emas, balki masalalarni turli ijodiy yo'llar bilan yechish va unga yechimlar qidirish jarayonidir.

1- jadval

Mantiqiy fikrlash qobiliyati rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar

Ta'sir qiluvchi omil	Kutilgan natija
O'qituvchilar	Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan savollarga javob berish va muammolarni yechishda yordam beruvchi malakali o'qituvchilar
Motivatsiya	Mantiqiy fikrlashni rag'batlantiradigan tanlovlar va mukofotlar tizimi
O'quv dasturi	Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan mavzular va fanlar o'quv dasturiga kiritilgan bo'lsa, bu ham muhim rol o'ynaydi
O'qitish materiali	Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga mo'ljallangan qo'llanmalar, kitoblar va elektron resurslar mavjudligi
Amaliyot va tajriba	Real hayotiy vaziyatlar va laboratoriya ishlarida mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini qo'llash imkoniyati
Muloqot va munozara	O'quvchilar orasida mantiqiy munozaralar va savol-javob sessiyalarini o'tkazish imkoniyatlari
O'qitish usullari	Innovatsion va mantiqiy fikrlashni rag'batlantiruvchi dars usullari (masalan, muammolarni yechish, tanqidiy tahlil, hamkorlikda o'rganish) mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga katta hissa qo'shadi
Texnologiya va resurslar	Mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi interaktiv dasturlar va onlayn resurslar
Qo'llab-quvvatlash muhiti	Talabalarning har qanday fikrini hurmat qilish va rag'batlantirish, shuningdek, ularning muvaffaqiyatsizliklaridan saboq olishga yordam berish

Pedagog-psixolog K.D.Ushinskiyning qarashlariga ko'ra, mantiqiy fikrlash bu – barcha fanlar ostonasida turishi kerak, shuning uchun, boshlang'ich sinflarda ta'lim berishning asosiy maqsadi bu – bolani mantiqiy fikrlashga o'rgatishdir. Shu bilan birga, ko'rgazmalilik mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun muhim shart bo'lishi kerak. Ya'ni taqqoslashsiz, tushunishsiz hukm bo'lmaydi, shuning uchun, bu shartlarni keng qo'llash lozim. K.D.Ushinskiydan farqli o'laroq,


N.N.Mixaylovaning soʻzlariga koʻra, mantiqiy fikrlash bu – mantiq qoidalar va qonunlariga xos tushunchalar, hukmlar va xulosalar boʻlib, ular vazifalarni ongli ravishda tushunish orqali yuzaga keladi. Bundan tashqari, mantiqiy fikrlash tafakkurning bir turi boʻlib, uning mohiyati mantiq qonunlari asosidagi tushunchalar, mulohazalar, xulosalar hamda bilimlarni harakatlar bilan taqqoslash va bogʻlash kabi operatsiyalar bilan ham tavsiflanadi.

Dissertatsiyaning **“Boʻlajak oʻqituvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning metodik taʼminoti”** deb nomlangan ikkinchi bobida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga asoslangan boʻlajak oʻqituvchilarni tayyorlash texnologiyasi madelining mazmuni, boʻlajak oʻqituvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga doir pedagogik qarashlar va mantiqiy topshiriqlar asosida oʻqitish, pedagogika oliy taʼlim muassasalarida mantiqiy fikrlashga oid tushunchalarni nostandart topshiriqlar asosida rivojlantirishning mazmuni bayon etilgan.

2-jadval.

No	Boʻlajak oʻqituvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish prinsplari	
1	Mantiqiy xulosa chiqarish	Dalillar asosida mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatini rivojlantirish
2	Dalillarga asoslanish	Har qanday fikr va qaror dalillar va faktlarga asoslanishi kerak
3	Muammolarni yechish	Muammolarni mantiqiy ravishda yondashish va ularni turli usullar bilan yechish koʻnikmalarini rivojlantirish
4	Tanqidiy fikrlash	Har qanday maʼlumotni shubha bilan qarash va uni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish
5	Argumentatsiya	Oʻz fikrini dalillar bilan mustahkamlash va mantiqiy argumentlar keltira olish qobiliyati
6	Muloqot	Fikrlar bilan boʻlishish va mantiqiy munozaralar olib borish koʻnikmalarini rivojlantirish
7	Tadqiqot va eksperimentlar	Ilmiy tadqiqotlar va eksperimentlar orqali yangi bilimlar olish qobiliyatini rivojlantirish
8	Refleksiya	Oʻzining fikr yuritish jarayonini tahlil qilish va unga qarab xulosalar chiqarish
9	Kuzatish va tahlil	Tushunarli va puxta oʻylangan kuzatish hamda tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish
10	Savol-javob	Savollar berish orqali yangi maʼlumotlar olish va olingan javoblarni tahlil qilish

Mantiqiy bilim va koʻnikmalarning tegishli majmui mantiqiy savodxonlikning mazmuni sifatida qaraladi. Talabalarning mantiqiy savodxonligi rivojlanishi oʻz-oʻzidan, yaʼni maxsus uyushtirilmagan, maxsus reja va tizimsiz turli fanlarni oʻrganish jarayonida, boshqariladigan, maxsus uyushtirilgan, maqsadga muvofiq – mantiqni oʻrganishni nazarda tutgan tegishli kurslar doirasida sodir boʻlishi mumkin. Pedagogik shartlarga va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga asoslangan nostandart vazifalar hozirga qadar, koʻplab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan oʻziga xos yoʻnalishlarda tadqiq etilgan.



1-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi modeli

Qolaversa, pedagogik bilimlar tarixida ushbu masalaning qadim zamonlardan beri o'rganilganligi haqida ham ayrim ma'lumotlar uchraydi. Pedagoglar I.A.Talisheva va Ye.V.Salimullinalarning darsliklarida qayd etilishicha, mantiq ilmiga o'rgatish masalasi antik davrdan boshlangan bo'lib, misol uchun, misrliklar, yunonlar, hindlar, xitoylar, arablar bu borada o'ziga xos qimmatli va ibratli fikrlar aytib o'tishgan. Masalan, mutafakkir Kvintilianning so'zlariga ko'ra, insonni mantiq ilmi bilan qurollantirish nafaqat uning hayoti uchun, balki dunyoviy bilimlarni egallashi, oq va qorani, yaxshi va yomonni, kecha va kunduzni hamda xatoliklarni ajratishi uchun juda muhimligini uqtirib, bunday ishlarni amalga oshirishda muallimlarning roli yuqoriligini alohida ta'kidlab o'tadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasini modeli va uning maqsadli bloki pedagogikada muhim ahamiyatga ega tarkibiy qism sanaladi. Bu jarayon o'qituvchilar talabalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni taraqqiy ettirish uchun zarur bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar bilan ta'minlaydi. Shu bilan birga, mantiqiy fikrlashning rivojlanishi o'qituvchilarni o'qitish sifatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

Maqsadli blok o'z mazmunida bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasining amaliy yo'nalishlarini belgilaydi.

Shu bilan birga mazmunli blokda bo'lajak o'qituvchilarni mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga va uni o'quvchilarga o'rgatishga qaratilgan yangi konseptual hamda amaliy yondashuvlarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, bo'lajak o'qituvchi shaxsining mantiqiy fikrlash qobiliyati va uning komponentlari sifatida yangiliklarga ochiqlik hamda ijodkorlik, mustaqil tanqidiy va analitik fikrlash, raqamli, kommunikativ kompetensiyalarni, muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatini shakllantirish hamda hamkorlik va jamoaviy ishlash kabi ko'nikmalari ajratib o'tiladi. Yuqorida qayd etilgan ushbu sifatlar, bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy fikrlashini ta'minlovchi sifatlar sanalib, ularning har biri bo'lajak o'qituvchilar shaxsida yaxshi rivojlantirilgan bo'lishi lozim.

Modelning tashkiliy blok qismida mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning shakl, metod va vositalari aks etgan bo'lib, ularga flipped ta'lim, muammoli ta'lim, gamifikatsiya kabi ta'lim shakllarini kiritish mumkin. Tadqiqot modelining tashkiliy blok mazmunida aks etgan metodlar qismida esa bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullar majmui aks etgan bo'lib, ularga SWOT tahlil, Keys-stadi texnologiyasi, induktiv va deduktiv metod, aqliy hujum metodi, munozara kabi metodlarni kiritish mumkin. Modelning tashkiliy blok qismida o'rin olgan vositalar komponentida bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga keng xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalar joy olgan bo'lib, ularga nostandart topshiriqlar, mantiqiy masalalar va jumboqlar, nostandart testlar kiritilgan. Modelning tashkiliy blok qismi va uning mazmunida aks etgan mantiqiy masalalar va jumboqlarda, o'ziga xos vazifalar nazarda tutilib, ularni bajarish jarayonida talabalar o'z shaxsida, birinchi navbatda, mantiqiy va tanqidiy fikrlash,

muqobil yo‘llarni topa bilish, muammolarni yecha bilish qobiliyati, kuchli diqqat va aniq fikr yurita bilish qobiliyati, analitik fikrlash, sabr-toqatlilik, o‘zgarishlarga ochiqlik, fikrlarni tartibga sola bilish, vaqtdan samarali foydalana olish kabi muhim kognitiv xususiyatlarni rivojlantirishga muvaffaq bo‘ladilar. Nostandart testlar ham modelning tashkiliy blok qismida aks etgan bo‘lib, ushbu vositalardan samarali foydalanish talabalarda bir qator ijobiy sifatlarni rivojlantiradi, chunki ushbu testlar fikrlashda yangicha yondashuvlarni talab qiladi.


Tadqiqot modelining tashkiliy blok qismidan o‘rin olgan bo‘lajak o‘qituvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi qismiga muvofiq, talabalar muammoni aniqlash, ma’lumot to‘plash, tahlil qilish, taqqoslash va qarama-qarshiliklarni aniqlash, kritik tahlil qilish, xulosa chiqarish, argumentatsiya qilish, nazariy asoslar va amaliyotni bog‘lash kabi kompetensiyalarga ega bo‘ladilar. Mazmunan har bir kompetensiya talabalarni ijodiy fikrlashga, innovatsion tafakkur qilishga, yaratuvchanlikka yo‘naltirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot ishi modelining natijaviy blok qismi alohida ahamiyat kasb etib, unda bo‘lajak o‘qituvchilarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning mezonlari joy olgan. Jumladan, aniqlik, to‘g‘rilik, muvozanat, qarorlar va xulosalarga asoslanish kabi muhim sifatlar nazarda tutiladi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi modeli, nafaqat mantiqiy fikrlash usullarini mukammal egallashga xizmat qilishi balki, bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘z ustida ishlash, ijodkorlik, innovatorlik, yaratuvchanlik, vaqtni samarali boshqara bilish kabi ko‘plab kognitiv xususiyatlarni takomillashtirishga keng xizmat qilishi tabiiydir.


Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Pedagogik tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish va natijalarini tahlil qilish”**ga bag‘ishlangan bo‘lib, mazkur bobda pedagogik tajriba-sinov maqsadi, vositalari va usullari, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarini miqdor va sifat jihatdan tahlil qilish va bo‘lajak o‘qituvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning empirik tahlili ko‘rib chiqilgan.

Mazkur so‘rovnoma bo‘yicha olingan natijalar oliy ta’limda tahsil oluvchilar, ya’ni Navoiy davlat pedagogika instituti, Qo‘qon davlat pedagogika instituti va Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filialida o‘qiyotgan talabalarning mantiqiy fikrlash darajasi pedagogik-psixologik mexanizmlarini aniqlashga mo‘ljallangan so‘rovnomalarni pedagogik jihatdan baholashga harakat qildik. Shu jihatdan olib qarganda, oliy ta’limdagi talabalarda mantiqiy dunyoqarash va fikrlash so‘rovnomasi shkalalari quyidagicha natijalarni namoyon qilgan. Sinaluvchilarning kuzatuvchanlik malakasi 26% quyi, 42% o‘rta darajani va 32% yuqori birliklarni tashkil etgan. Tajriba va ko‘nikma mahorat shkalasiga ko‘ra 21% quyi, 35% o‘rta va 44% yuqorini namoyon qilgan. Keyingi ogohlik bilan harakat qilish qobiliyati shkalasi bo‘yicha 35% quyi, 44% o‘rta va 21% yuqorini tashkil qilgan. O‘z ichki tajribalariga befarq munosabat 27% quyi, 39% o‘rta va 34% yuqorini qayd etgan. O‘z tajribalariga tayanish shkalasi bo‘yicha 32% quyi, 28% o‘rta va 40% yuqorini namoyon qilgan.



2-rasm. Mantiqiy fikrlash darajasini aniqlash bo'yicha so'rovnoma natijalari

Mantiqiy fikrlash – insonning aniq dalillarni kuzatib, umumiy xulosa chiqarishga intilishi, voqea hodisalarning sabablarini aniqlashi va kelajakni ko'ra bilishidan boshlanadi. Fikrlash masalalarini yechish, mulohaza yuritish orqali talabalarning dunyoqarashida o'ziga hos xususiyatlar takomillashadi, ya'ni fikrning chuqurligi, kengligi, o'tkirligi, tanqidiyligi, fikrlash tezligi va mustaqilligi muhim ahamiyatga egadir. Aql-farosat murakkab nazariy va amaliy muammolarni hal etishdagina emas, balki kishining juda oddiy, odatdagi kundalik ishlarida ham namoyon bo'ladi.




3-rasm. Tafakkur tezligi va egiluvchanligi hamda lokus nazorat xususiyatlarini aniqlash bo'yicha so'rovnoma natijalari

Navoiy davlat pedagogika instituti, Qo‘qon davlat pedagogika instituti va Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filialida tahsil oluvchi talabalarning tafakkur tezligi va egiluvchanligi hamda lokus nazorat xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha olingan so‘rovnoma natijalari birinchi shkala ya‘ni eksternal lokus nazorat 33% quyi, 36% o‘rta darajani va 31% yuqori birliklarni tashkil etgan. Mantiqiy bilim va ko‘nikmalarning tegishli majmui mantiqiy savodxonlikning mazmuni sifatida qaraladi. Talabalarning mantiqiy savodxonligi rivojlanishi o‘z-o‘zidan, ya‘ni maxsus uyushtirilmagan, maxsus reja va tizimsiz turli fanlarni o‘rganish jarayonida, boshqariladigan, maxsus uyushtirilgan, maqsadga muvofiq-mantiqni o‘rganishni nazarda tutgan tegishli kurslar doirasida sodir bo‘lishi mumkin.

Internal lokus nazorat shkalasiga ko‘ra 31% quyi, 28% o‘rta va 41 % yuqorini namoyon qilgan. T.A.Kondrashenkovaning ta‘kidlashiga ko‘ra mantiqiy bilimlarning shakllanishi biror fanning asosiy mazmunini o‘rganish jarayonida o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi. Tafakkur tezligi bo‘yicha 24% quyi, 36% o‘rta va 40% yuqorini tashkil qilgan. Demak, inson tafakkur tarziga xos jihatlarning psixologik talqinida kichik yoshdagi bolalar, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkaziladigan tajriba materiallari qimmatli manba sifatida xizmat qiladi. Bunda intellektual-psixologik o‘yinlar, metodikalar, turli topshiriqlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Tafakkur egiluvchanligi 29% quyi, 38% o‘rta va 33% yuqorini qayd etgan. Tafakkurning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uni til bilan bevosita bog‘liqligidir. Tafakkur nutqda namoyon bo‘ladi.



4-rasm. Mantiqiy fikrlash darajasini aniqlash bo‘yicha so‘rovnoma natijalari

